

“XUASTUANIFT”NING O’RGANILISHI VA ASARGA OID QARASHLAR TALQINI

Karshiyeva Shoxsanam Abdurashidovna

GulDU tayanch doktoranti

Tel. (+99899) 530 0301

E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20807332>

Annotatsiya: Maqolada “Xuastuanift” asarining o’rganilishi, asarning tabdili ustida ishlagan olimlarning sa’y-harakatlari haqidagi ma’lumotlar ilmiy tahlil qilindi. “Xuastuanift”ning adabiy qimmati, mohiyati, badiiyati yuzasidan bildirilgan adabiy qarashlar talqini yuzasidan fikr bildiriladi.

Kalit so’zlar: O’zbek adabiyoti tarixi, “Xuastuanift”, moniylik oqimi, “Avesto”, Xo’rmuzd, Shmnu, Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov.

Аннотация: В статье научно проанализированы сведения об изучении произведения «Хуастуанифт» и усилиях ученых, работавших над переводом произведения. Интерпретированы литературоведческие суждения о литературной ценности, сущности и художественности «Хуастуанифт».

Ключевые слова: история узбекской литературы, «Хуастуанифт», денежный поток, «Авеста», Ормузд, Шмну, Насимхан Рахмонов, Касымжон Садыков.

Abstract: The article scientifically analyzes information about the study of the work "Huastuanift" and the efforts of scientists who worked on the translation of the work. Literary judgments about the literary value, essence and artistry of "Huastuanift" are interpreted.

Key words: History of Uzbek literature, "Huastuanift", cash flow, "Avesta", Ormuzd, Shmnu, Nasimkhan Rakhmonov, Kasymjon Sadykov.

O’zbek adabiyoti tarixida shunday asarlar borki, ular nafaqat o’z davrida, balki bugungi adabiy jarayonda ham juda muhim ahamiyat kasb atadi. Qadimgi turkiy adabiyotning ulkan hazinalaridan biri bo’lgan “Xuastuanift” (“Moniylarning tavbanomasi”) asari ham ana shunday qimmatli asarlardan biri sanaladi. O’z davrida ezgulik g’oyasining targ’ibotchisi bo’lgan moniylik oqimi “Xuastuanift”ning yozilishiga sabab bo’lgan. Moniylik oqimning o’ziga xos tomoni shundan iboratki, bu oqim totemizmni ham o’z ichiga oladi, totemimiz o’z navbatida moniylik oqimining hayotga yanada yaqinlashuvi uchun xizmat qilgan. Totemistik obrazlarning moniylik oqimi shakllangunga qadar bo’lgan davrdagi xususiyatlari ham “Xuastuanift” asarida o’z aksini topgan. “Xuastuanift” moniylik oqimini targ’ib qilish jihatidagina emas, balki mazkur oqimning tub mohiyatini ochib berishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. 1963-yilda Sank-Peterburglik L.Dimitriyeva asarning har uchta nusxasi asosida “Xuastuanift”ning yig’ma matnini yaratadi. Shundan so’ng asarga qiziqish yanada kuchaydi va uni tadqiq qilish imkoni paydo bo’ldi. Asar qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchilarining e’tiborini tortishi tabiiy.

Adabiy jarayonda asarning O’zbekistonda o’rganilishi yuzasidan deyarli hech qanday ma’lumotlar uchramaydi. Faqat asarning mazmun-mohiyati, yozilish tarixi, hozirgi o’zbek tiliga tabdil qilinishi, saqlanishi yuzasidan olimlarimizning xizmatlari e’tifga molik. Yurtimizda “Xuastuanift”ning tadqiqi yuzasidan qilingan ishlar haqida so’z borar ekan, avvalo, yana o’sha zahmatkash olim Nasimxon Rahmonovning nomlarini zikr etamiz. “O’zbek olimlaridan professor N.Rahmonov tadqiqotlarida “Xuastuanift”ning g’oyasi, tuzilishi, ahamiyati keng o’rganilgan”[1, 39].

“Xuastuanift”ning yaratilgan davri xususida olim V.V.Radlovning V asr deb aytgan fikrlari va S.Y.Malovning VII asr degan qarashlarini o‘zaro taqqoslagan Nasimxon Rahmonov o‘z davrida ijtimoiy faol bo‘lgan moniylik oqimining nufuzi va til xususiyatlarini inobatga olgan holda xulosa chiqaradi. Shu boisadan u V.V. Radlovning fikrlarini yoqlaydi.

Qadimgi turkiy adabiyot bilimdoni Nasimxon Rahmonov “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini” darsligida moniylik oqimidagi turkiy adabiyot namunalaridan parchalar keltirilgan. Qadimgi turkiy adabiyotda Moniylik oqimi o‘ziga xos oqimning mahsuli sifatida muhim ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda darslikda “Xuastuanift”ning tuzilishi, mohiyati va g‘oyaviy yo‘nalishi haqida batafsil ma‘lumotlar bor. Asarning L. Dimitriyeva tiklagan to‘liq variantini tadqiq qilgan olim asarni 15 ta bo‘limiga alohida-alohida izohlar beradi. Har bir bo‘limning mohiyatini ochiqlaydi. Nasimxon Rahmonovning asar yuzasidan bildirgan ilmiy-tarixiy mushohadalari olimning bu yo‘nalishdagi yuqori salohiyatini belgilaydi. “Xuastuanift”ning obrazlar tizimi “Avesto” obrazlari bilan uyg‘unligi, asarda zaddushtiylikning keyingi davrdagi mifologik qahramonlari ham qamrab olinganligi muallif diqqatini tortadi. Shu boisdan “Avesto” bilan “Xuastuanift” orasidagi g‘oyaviy mushtaraklik ta’kidlanadi. Moniylik oqimi o‘z davri uchun adabiy qimmat kasb etgan moniylik she’riyatini ham yuzaga keltirgani muallifning fikrlari asosida isbot qilinadi.

Olimning asar haqidagi dastlabki qarashlari, ilmiy izlanishlari 2002-yilda yozilgan “Ruhyatdagi nur murodi”da mujassamlashgan. Nasimxon Rahmonov “Xuastuanift”ni moniylik oqimidagi turkiy adabiyotning namunasi sifatida davrning ijtimoiy ahvoli bilan taqqoslagan holda tadqiq qiladi. “Millodning boshlaridagi davr mafkurasi, jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliq aynan shu asarlar orqali to‘ldirildi. Shu boisdan ham moniylik oqimining va uning ta’sirida yozma adabiyotning paydo bo‘lishi tasodif emas, zarurat bo‘lgan edi. “Xuastuanift” shunday asarlardan bittasidir”[2, 14].

Asar moniy jamoasining qilingan gunohlari uchun Olloh oldida tavba qilishlari mazmunida yozilgan. Nasimxon Rahmonov “Ruhyatdagi nur murodi” monografiyasida asarning tuzilishiga alohida to‘xtalib bir-biri bilan uzviy bog‘langan boblarni tahlil qiladi. Asarning g‘oyaviy mazmunini aniqlashtiradi. Shuningdek, moniylik mifologiyasi yuzasidan fikr yuritishga chog‘langan olim dastlab. Moniylik oqimining mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib boradi. Shundan so‘ng moniylik mifologiyasi yuzasidan adabiy-ilmiy qarshlarini, albatta, “Xuastuanift” asari misolida tahlil qiladi. “Xuastuanif”dagi mifologik obrazlarning olim ilmiy farazlari orqali baholanishi kizatiladi. Asardagi mifologik motiv elementlari sinktetik shaklda ekanligi nazariyalar fonida dalillanadi. “Xuastuanift”da yer yuzidagi ilk inson ham Xurmuzddir. Xurmuzdning bu talqini yana Musoning “Ibtido” kitobidagi Odam Atoning yaratilishi va faoliyatiga hamohangdir. Mazkur mifologik qahramonlarning faoliyatidagi umumiylik bu oqimning o‘rtasidagi qarindoshlikni yana bir bor tasdiqlaydi”[2, 20]. Nasimxon Rahmonovning fikricha, “Xuastuanift”dagi Xurmuzd mifologik obrazi “Avesto”dagi mifologik obrazdan ancha kengaytirilgan, asarda Xurmuzd shaxslantirilgan. Shuningdek, mazkur obraz asar boshida epos qahramonlaridek ko‘tarinki ruhda tasvirlanadi. Bu holat “Xuastuanift”ga epik ruhni olib kirgan. Asarning butun mazmuni insonlarni xudodan qo‘rqish, gunohlardan tiyilishga qaratilgan bo‘lsa, bu albatta, turkiy mifologiya bilan uzviy bog‘lanib ketganligi ravshan. Nasimxon Rahmonov “Xuastuanift”dagi jamiki moddiyatning asosi bo‘lgan Zervanni Xurmuzd va yovuzlik timsoli bo‘lgan Shmnuning otasi sifatida tasvirlaydi. Shmnuni “O‘g‘uznoma”dagi shunqorning

yaratilishiga asos deb hisoblaydi. Zervanni taqdir va qismat ma'nosida va mifologik obraz sifatida talqin etadi.

Qosimjon Sodiqov yozgan „Xuastuanift“ nusxalarining matniy-solishtirma tahlili va asarning moniylik davri turk adabiyotida tutgan o'rne. (Uluslar Arası Türk Dil Kurultayı. 1996. — Ankara, 1999. -S. 961-972) maqolasi ham asar tadqiqi yuzasidan muhim umumlashma ilmiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ladi. Olim bu ishda "Xuastuanift"ning har uchchala – moniy yozuvidagi London va Berlin, eski-uyg'ur yozuvidagi Sank-Peterburg nusxalarining matnini qiyosiy-tipologik aspektda tekshiradi. Nusxalar matni o'rtasidagi umumiylik va xususiylik jihatlariga diqqat qaratadi. Asar tili xususiyatlariga ham alohida urg'u berib, bunda tashqi va ichki omillar ta'sirida yuz bergan o'zgarishlarni misollar orqali ko'rasatib berishga urinadi. Olimning, ayniqsa, "Xuastuanift" asarining qadimgi turkiy moniylik adabiyotida tutgan o'rni, moniylik oqimining targ'ib etilishi, mazkur dinning mazmun-mohiyatini oydinlashtirishdagi ahamiyati to'g'risidagi tarixiy-ilmiy qarashlari muhim sanaladi.

Qosimjon Sodiqovning "Eski o'zbek yozma adabiy tili" ilmiy-ommobop qo'llanamsida uzoq o'tmishda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklari materiallariga tayangan holda o'zbek adabiy tilining yuzaga kelishi, ilk va o'rta asarlardagi lingvistik takomili ilmiy tadqiq etilgan. Olimning ulkan ilmiy salohiyatini ko'rsatuvchi mazkur kitobda "Moniychilarning o'kinuv bitigi "Xuastuanift" mavzusidagi ilmiy mulohazalari ilmiy-tarixiy aspektda taqdim qilinadi. "Xuastuanift" moniychilarning erkli-erksiz, bilib-bilmay qilgan yozuqlaridan o'qinuv bitigidir. Asarning oti matnda N(i)go'saklarniñ suy'in yazuqin okungu Huastuan(i)vt deb berilgan. Ushbu jumladagi niğošak – sug'dchadan o'zlashgan atama bo'lib, "tinglovchi" ma'nosini anglatadi, u moniy diniy jamoasida quyi darajani bildirgan; suy yazuq – juft so'z, "gunohlar, yozuqlar" degan ma'noni bildiradi; okungu esa hozirgi "o'kinuv, tavba qiluv" so'ziga teng. Shunga ko'ra, ushbu qayddan "Nig'o'shaklarning yozuqlarini o'kinuvchi "Xuastuanift" degan ma'no kelib chiqadi [3, 43].

"Xuastuanift" qadimgi eroniy tillaridan birida yaratilgan shu boisdan asar tarjima asar hisoblanadi. Qadimshunos, tilshunos olim asarning mazmun-mohiyatini asar matniga asoslangan holda talqin etadi. Asarni nafaqat diniy-falsafiy nuqtai nazardan, balki qadimgi turkiy adabiyotning ajoyib va tengi yo'q yodgorligi sifatida e'tirof etadi. Asarning nusxalari ularning saqlanishi va o'zaro yakdillik, senkretik xususiyatlari, badiiy tili va ifoda uslubi haqida atroflicha ilmiy-qiyosiy qarashlar havola qiladi.

Shuningdek olimning "Turkiy til tarixi" o'quv qo'llanmasida keltirilgan matn asarning Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanayotgan uyg'ur yozuvli qo'lyozmasi asosida tayyorlangan. Matn chiroyli xat bilan o'rama qog'ozga bitilgan. Qog'ozning bosh qismi chirib, titilib ketgan. Matndan 160 qator saqlangan. "Xuastuanift"ning transkripsiyasi va mazmuni berilishi asarning mohiyati va g'oyaviy yo'nalishi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Asarda olamning ibtidosi tasvirida Xo'rmuzd va Shmnu bir-biriga qarama-qarshi kuch ekanligi tasvirlanadi. Shmnu paydo bo'lgach, nur bilan zulmat qo'shilib ketdi. Ularni ajratib bo'lmay qolgandan keyin Shmnu va yana beshta iblis bilan kurashish uchun Xo'rmuzd osmondan tushdi. Ammo Shmnu o'z ishini qildi, ya'ni insoniyatning ongini, niyatini iblis tomonga burib, ularni ruhsiz qilib qo'ydi. "Ruhsizlik – xudodan uzoqlashishga, faqat tana sevgisi bilan yashashga olib keladi, degan xulosa "Xuastuanift"da bosh o'rin tutadi" [4, 13].

Moniyar tavbanomasi bo'lgan "Xuastuanift" asari tadqiqi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va ilmiy asarlarni o'rganish, asar yuzasidan bildirilgan adabiy-lingvistik qarashlarni talqin qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, "Xuastuanift"ni adabiy manba sifatida talqin qilgan olim Nasimxon Rahmonov mazkur asarning tub mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatiga e'tibor qilgan. Asarning qadimgi turkiy adabiyot tarixida tutgan o'rniga munosib baho bergan. Qadimgi turkiy tilshunoslik mutaxassisi Qosimjon Sodiqov esa asarning tabdil qilinishi, transkripsiyasi yuzasidan qilgan xizmatlari bilan birgalikda, "Xuastuanift"ning matni ustida izchil izlanishlar olib borishga muvassar bo'ldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. "Yangi asr avlodi" Toshkent. 2005. –B. 39.
2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. "Xalq merosi" nashriyoti. Toshkent. 2002-y. –B. 14, 20.
3. Sodiqov Q. "Eski o'zbek yozma adabiy tili" Toshkent. "Akademnashr" 2021. –B. 43.
4. Mamatqulov M. "O'zbek adabiyoti tarixi". Guliston 2020. –B. 13.